

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

RO'YXATGA OLINDI
№ vm – 343 - 5A340606 – 2.08
« 1 » Iyul 2003 y

«TASDIQLANDI»
O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

« 8 » Iyul 2003 y

**INVESTITsIYa LOYIHALARINI
MOLIYaLASHTIRISH
fayaidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 -«Biznes va boshqaruv»
ta'lim sohasidagi SA3406013 - «Investitsiya loyihalarini
moliyalashtirish va kompleks ekspertiza qilish»
magistratura mutaxassisligi uchun**

Tuzuvchilar: dots. Karimov N. G'.
k.o'q. Xoshimov S.
M.

Taqrizchilar: dots. Sobirov O.
Sh. dots. Jo'raev A. S

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini topish, xususan, chet el sarmoyalari va ichki manbalarni jalb qilish davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

«Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi» fanining maqsadi magistrantlarga investitsiyalarni moliyalashtirishning shakllari, uslublari va manbalarini, moliyalashtirish mexanizmini, loyihalarni xorijiy kredit lar hisobiga moliyalashtirish jarayonlarini o'rgatish hisoblanadi.

Bu maqsaddan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifalari banklarda loyihalarni moliyalashtirishni tashkil etish shart-sharoitlarini, loyihalarni turli manbalar hisobidan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini, loyihalarni moliyalashtirishda risklarni va inflyatsiya ta'sirini baholashni, loyihalarni turli halqaro moliya fondlari va xorijiy banklarning kredit yo'nalishlari, shuningdek mahalliy banklarning uzoq muddatli kreditlari hisobidan moliyalashtirish mexanizmini, loyihaviy moliyalashtirishda sug'urtaning o'rni va ahamiyatini o'rgatishdan iboratdir.

Для успешного осуществления рыночных реформ приобретают инвестиции. Одним из приоритетных направлений государственной инвестиционной политики считается формирование источников финансирования, то есть привлечение внутренних и внешних источников.

Цель предмета «Механизм финансирования инвестиционных проектов» вооружить магистрантов знаниями о формах, источниках и методах, механизме финансирования, финансировании проектов за счёт зарубежных кредитов.

Основные задачи дисциплины состоят в изучении условий организации финансирования проектов в банке, основных черт финансирования проектов из различных источников, оценке рисков и инфляции в финансировании проектов, механизма финансирования проектов за счет различных международных фондов, долгосрочных кредитов местных банков и кредитных линий зарубежных банков, роли и значении страхования в проектном финансировании.

At successful fulfilment of market reforms, - investment has an important role in development of the economy of the Republic of

Uzbekistan. Formation of investment sources, the attraction of inside and outside sources of financing is considered as one of the priority directions of state investment politics.

The purpose of the subject « Financing of the investment projects" proposes the learning of the form, sources, methods and mechanism of financing, project financing at the expense of the foreign credits.

The basic tasks of the subject consists of the studying of the organization conditions of project financing at bank, basic features of project financing of different sources of financing, an estimation of risks and inflation in project financing, the mechanism of project financing at the expense of different international funds, long-term credits of local banks and credit lines of foreign banks, role and meaning of insurance in project financing.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma)

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlarini ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSH

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini topish, xususan, chet el va ichki manbalarni jalb qilish davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

«Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi» fanini o'qitishning asosiy maqsadi magistrantlarga investitsiyalarni moliyalashtirishning shakllari, uslublari va manbalarini, moliyalashtirish mexanizmini, loyihalarni xorijiy kreditlar hisobiga moliyalashtirish jarayonlarini o'rgatish hisoblanadi. Bu maqsaddan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifalari banklarda loyihalarni moliyalashtirishni tashkil etish shart-sharoitlarini, loyihalarni turli manbalar hisobidan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini, loyihalarni moliyalashtirishda risklar va inflyatsiya ta'sirini baholashni, loyihalarni turli xalqaro moliya fondlari hamda xorijiy banklar kredit liniyalari, shuningdek, mahalliy banklarning uzoq muddatli kreditlari hisobidan moliyalashtirish mexanizmini, loyihaviy moliyalashtirishda sug'urtaning o'rni va ahamiyatini o'rgatishdan iboratdir.

Mazkur fan bilan bir qatorda magistrantlar «Investitsion tahlil», «Investitsiya loyihalari texnik ekspertizasi va uni tahlili», «Investitsiya loyihalari monitoringa», «Davlat investitsiya siyosati», «Banklarda hisob va to'lov tizimi», «Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari» kabi fanlarni chuqur o'zlashtirishlari zarur.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida magistrantlar tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim.

Magistrantlar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda investitsiya va xorijiy investitsiya sohasiga oid qonunchilik, shuningdek, investitsiya siyosatidagi o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim.

«Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi» o'quv fani bo'yicha magistrantlar quyidagi masalalarni bilishlari lozim:

- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish asoslari va tamoyillari;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tenderlar tashkil etish;
- banklarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni tashkil etish;
- loyihalarni turli manbalar hisobiga moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari;
- loyihalarni sindikat kreditlari asosida moliyalashtirish;
- loyihalarni moliyalashtirishdagi risklarni tahlil etish usullari;
- xorijiy banklarning kredit liniyalari orqali loyihalarni moliyalashtirish mexanizmi;
- loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtaning o'rni va ahamiyati.

Magistrantlar mazkur o'quv fani bo'yicha yuqorida ko'rsatib o'tilganlar bo'yicha tasavvurga ega bo'lishlari, bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlari hamda yangiliklarni o'zlashtira bilishi kerak.

Shuningdek, ular kompyuterlardan va boshqa zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish asoslarini o'rgatuvchi fanlarni ham o'zlashtirishlari lozim.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliyotni solishtirish usullarini, magistrantlarning mustaqilligini ta'minlovchi o'quv jarayonini, bilim va ilmga bo'lgan qiziqishini tashkil qilish bilan birga ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish zarur.

«Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi» fanidan olgan bilimlar magistrantlarga oliy o'quv yurtini gamomlagandan so'ng, kundalik faoliyatida uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda zamonaviy iqtisodiyotga doir adabiyotlarni o'rganib malakalarini oshirishlarida ham qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashrullari bo'yicha bajariladigan ishlar miqdoriga minimal talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari yuzasidan magistrantlar tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladilar, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlaydilar hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadilar. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollar bo'yicha magistrantlarning dare jarayonini to'liq o'zlashtirishlarini belgilaydi.

Mashg'ulotlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

O'quv rejasida fanga jami 120, shu jumladan, 40-ma'ruza, 40-amaliy, 40-mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

O'quv jarayonida rejaga muvofiq oldin ma'ruza, keyin amaliy mashrullot o'tkaziladi. O'tilgan mavzular bo'yicha magistrantlarning mustaqil o'rganishi uchun alohida mavzular bo'yicha uy vazifalari beriladi. Magistrantlarning olgan bilimlarini aniqlashning og'zaki yoki yozma usullari qo'llaniladi.

Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalar bilimini baholash reyting tizimi asosida joriy, oraliq va yakuniy baholashda yig'ilgan ballar asosida belgilanadi.

Fanni o'qitishda har bir semestrda ikki marotaba joriy, ikki marotaba oraliq va bir marotaba yakuniy baholash amalga oshiriladi. Agar fan bir necha semestr davomida o'qitilishi ko'zda tutilsa, oldingi semestrlar nihoyasida yakuniy baholash og'zaki yoki test usulida, oxirgi semestrda esa yakuniy baholash faqat yozma ish usulida amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Quyidagilar «Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi» fanini o'qitishda kompyuter, axborot va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarining tarkibiy qismlari hisoblanadi:

- -o'quv maqsadlari va vazifalar katalogini ishlab chiqish;
- -o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga ko'chirish;
- -tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan, slayd, kompyuter dasturlaridan foydalanish;
- -rejalashtirilgan maqsadlarning bajarilishini baholash.
- Magistrantlarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:
- magistrantlarni oldindan tarqatma materiallar bilan , ta'minlashga erishish;
- magistrantlarga o'z bilimini o'zi baholaydigan sharoitni yaratib berish;
- magistrantlarning bilimini tayanch iboralari asosida baholashni joriy qilish;
- magistrantlarni kichik guruhlariga bo'lib o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish va h.k.

Bu fanni o'qitishda investitsiya sohasiga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, investitsiya dasturi, nizomlar va investitsiya loyihalarini baholashning YuNIDO uslubiyoti va kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalardan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan «Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kompleks ekspertiza qilish», «Davlat investitsiyalari», «Xalqaro investitsiyalar» va «Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish» mutaxassislariga birinchi semestrda o'qitilishi mo'ljallangan. Bu fanni o'qitishda investitsiya faoliyatiga tegishli qonunlar, qarorlar, investitsiya dasturlari, nizomlar va kompyuter dasturlaridan, saydlardan foydalanish lozim.

«Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi» fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'rgatiladi. Magistrantlarning o'quv jarayonida auditoriyada olgan bilimlari o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting usulida baholanadi.

2. FAN DASTURI

«Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi» fani bo'yicha ma'ruza mavzulari Fanning predmeti va mazmuni. Investitsiyalarni moliyalashtirish asoslari va bosqichlari Fanning predmeti va vazifalari. Fanning tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Loyixalarni moliyalashtirishning asoslari va uslublari. Loyihalarni moliyalashtirishni tashkil etishning dastlabki bosqichi. Loyihalarni moliyalashtirishning asosiy bosqichi. Loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha takliflar va qarorlar qabul qilish.

Investitsiya loyihalarining tenderlarini tashkil etish va shartnomalar tuzish

Tender tushunchasi. Injining xizmati. Tenderlarni o'tkazish maqsadi va predmeti. Tenderning asosiy ishtirokchilari. Tenderlarni o'tkazish mexanizmi. Tenderlar bo'yicha yakuniy xulosani tayyorlash. Tender qo'mitalari va ularning faoliyati. Shartnomalar va ularning turlari.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning manbalari va shakllari

Aksiyador kapitali evaziga investitsiyalash. Byudjet mablag'lari hisobiga investitsiyalash. Lizing. Bank kreditlari hisobiga uzok, muddatga moliyalashtirish. Ipoteka. Loyshchalarni moliyalashtirish manbalari. Xo'jalik sub'ektlarining xususiy mablag'lari. Byudjet ajratmalari. Xorijiy investitsiyalar. Qarzga olingan mablag'lar va charz majburiyatini tasdiqlovchi kimmatli qog'ozlar hisobiga moliyalashtirish. Investitsiyalash jarayonida amortizatsiyaning o'rni. Amortizatsiya miqdoriga ta'sir etuvchi omillar. Amortizatsiyani hisoblash turlari. Tezlashtirilgan amortizatsiya me'yorlari. Amortizatsiya joriy qiymatining hisob-kitobi.

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning mohiyati. Loyixaviy moliyalashtirishning matssad va vazifalari. Loyihalarni baholash va moliyalashtirishda noaniqliklar hamda risklar tushunchasi. Risklarni turkumlash. Loyiha risklarini boshqarish. Risklarni sug'urtalash. Risklarning investitsiya jarayoni ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishi. Loyihalarni sezgirligi tahlili. Risklar ta'sirini pasaytirish uchun belgilangan diskont stavkalari. Risklarni pasaytirish yo'llari. Inflyatsiyani vujudga keltiruvchi omillar. Inflyatsiyani hisobga olish ko'rsatkichlari. Inflyatsiyani barqarorlashtirish bo'yicha asosiy tadbirlar. Inflyatsiyaning foiz stavkalariga ta'sirini hisoblash.

Davlat kafolati asosida loyihalarni moliyalashtirish (sindikar kreditlari)

Haltsaro shartnomalar doirasida xukumat kafolati asosida oqalib tsilinadigan xorijiy kreditlar. Sindikar kreditlari. Loyihaviy moliyalashtirish ishtirokchilari. Xorijiy kreditlar hisobiga loyihalarni moliyalashtirish shart-sharoitlari. Moliyalashtirishga loyihalarni tanlash. Kredit shartnomalari. Kreditlashtirish tartibi. Kreditdan maqsadli foydalanish ustidan nazorat. Monitoring.

Xalqaro moliyaviy institutlarning investitsiya loyihalari bo'yicha kredit yo'nalishlari

O'zbekistonda xalshchro moliyaviy institutlar faoliyati. Jahon banki va uning muassasalari. Halqaro valyuta fondi va uning kredit liniyasi. Evropa taraqqiyot va tiklanish

banki, uning kredit liniyasi. Loyihalarni kreditlash mezonlari. Osiyo taraqqiyot banki va uning loyihalarni kreditlash mezonlari. Germaniya banklari kredit liniyasi.

Investitsiya loyihalarini mahalliy banklarning uzoq muddatli kreditlari hisobiga moliyalashtirish

Uzoq muddatli kreditlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, ob'ektlari, tamoyillari. Loyihalarni kreditlashtirish shart-sharoitlari. Kreditlashtirish mezonlari. Kredit uchun foiz stavkasini belgilash. Investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarni kreditlashtirish mexanizmi. Kreditni qaytarish va foizlarni to'lash jadvali. Bank kreditlari ustidan nazorat.

Loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalash

Loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalashning mohiyati va matnadi. Sug'urta kompaniyalarining loyihaviy moliyalashtirishdagi o'rni va majburiyatlari. Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash. Sug'urtalash shart-sharoitlari va mexanizmi. Kredit uchun garovga qo'yilgan mol-mulklarni sug'urtalash. Halqaro sug'urta kompaniyalari hamda ularning investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha talablari va asosiy mezonlari.

3. AMALIY (SEMINAR) MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING TAXMINIY RO'YXATI

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish asoslari va bosqichlari

Loyihalarni moliyalashtirishning asoslari va uslublari. Loyihalarni moliyalashtirishni tashkil etishning dastlabki bosqichi. Loyihalarni moliyalashtirishning asosiy bosqichi. Loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha takliflar va qarorlar qabul qilish.

Investitsiya loyihalarining tenderlarini tashkil etish

Tender tushunchasi va tenderlarni o'tkazish maqsadi va predmeti. Injiniroq xizmati. Tenderlarni o'tkazish mexanizmi. Tenderlar bo'yicha yakuniy xulosani tayyorlash. Tenderning asosiy ishtirokchilari, tender qo'mitalari va ularning faoliyati. Shartnomalar va ularning turlari.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning manbalari va shakllari

Aktsiyador kapitali evaziga investitsiyalash. Byudjet mablag'lari hisobiga investitsiyalash. Bank kreditlari hisobiga uzok; muddatga moliyalashtirish. Ipoteka va lizing. Xo'jalik sub'ektlarining xususiy mablag'lari. Byudjet ajratmalari. Xorijiy investitsiyalar. Qarzga olingan mablag'lar va qarz majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlar hisobiga moliyalashtirish. Investitsiyalash jarayonida amortizatsiyaning roli va uni hisoblash turlari. Tezlashtirilgan amortizatsiya me'yorlari. Amortizatsiya joriy qiymatining hisob-kitobi.

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning mohiyati. Loyihaviy moliyalashtirishning maqsad va vazifalari. Loyihalarni baholash va moliyalashtirishda noaniqliklar hamda risklar tushunchasi. Risklarni turkumlash va ularga tavsif. Loyihalarning sezgirligi tahlili. Risklar ta'sirini pasaytirish uchun belgilangan diskont stavkalari. Risklarni pasaytirish yo'llari. Inflyatsiyani vujudga keltiruvchi omillar. Inflyatsiyani hisobga olish ko'rsatkichlari. Inflyatsiyani barqarorlashtirish bo'yicha . asosiy tadbirlar.

Davlat kafolati asosida loyihalarni moliyalashtirish

Xalqaro shartnomalar doirasida hukumat kafolati asosida jalb qilinadigan xorijiy kreditlar. Sindikat kreditlari. Loyihaviy moliyalashtirish ishtirokchilari. Xorijiy kreditlar hisobiga loyihalarni moliyalashtirish shart-sharoitlari va tartibi. Kredit shartnomalari. Kreditdan maqsadli foydalanish ustidan nazorat.

Xalqaro moliyaviy institutlarning investitsiya loyihalari bo'yicha kredit liniyalari O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlar faoliyati. Jahok banki va uning muassasalari. Xalqaro valyuta fondi va uning kredit liniyasi. Evropa taraqqiyot va tiklanish banki, uning kredit liniyasi. Loyihalarni kreditlash mezonlari. Osiyo taraqqiyot banki va uning loyihalarni kreditlash mezonlari. Germaniya va Yaponiya banklari kredit liniyasi.

Investitsiya loyihalarini mahalliy banklarning uzoq muddatli kreditlari hisobiga moliyalashtirish

Uzoq muddatli kreditlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, ob'ektlari, tamoyillari. Loyihalarni kreditlashtirish shart-sharoitlari va mezonlari. Kredit uchun foizlar stavkasini belgilash. Investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarni kreditlashtirish mexanizmi. Kreditni qaytarish va foizlarni to'lash jadvali. Bank kreditlari ustidan nazorat.

Loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalash

Loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalashning mohiyati, maqsadi va roli. Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash. Sug'urtalash shart-sharoitlari va mexanizmi. Kredit uchun garovga qo'yilgan mol-mulklarini sug'urtalash. Xalqaro sug'urta kompaniyalari va ularning investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha talablari va asosiy mezonlari.

Kurs ishi (loyihasi) mavzulari ro'yxati:\

- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning an'anaviy uslublari.
- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va shakllari.
- Loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish va uni amalga oshirish.
- Investitsiya loyihalari tenderlarini tashkil etish va shartnomalar tuzish.
- Investitsiyalash jarayonida amortizatsiyaning o'rni.
- Investitsiya loyihalarni baholash va moliyalashtirishda noaniqliklar hamda risklar tushunchasi.
- Investitsiya loyihalari risklarini turkumlash.
- Hukumat kafolati asosida loyihalarni moliyalashtirish (sindikata kreditlari).
- Xorijiy kreditlar hisobiga loyihalarni moliyalashtirish shart-sharoitlari va tartibi.
- Xalqaro moliyaviy institutlarning investitsiya loyihalari bo'yicha kredit yo'nalishlari.
- Loyihalarni moliyalashtirishda sug'urtalashning mohiyati, maqsadi va o'rni.
- Investitsiya loyihalari risklarini sug'urtalash mexanizmi.
- Loyihalarni maxalliy banklarning uzoq muddatli kreditlari hisobiga moliyalashtirish shartlari va mezonlari.
- Loyihalarni sindikata kreditlari orqali kreditlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash.

Xalqaro sug'urta kompaniyalari hamda ularning investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha talablari va mezonlari.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHAQA . DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproskop va jadvallardan foydalanish ko'zda tutilgan. Ayrim aniq masalalarni o'rganishda shaxsiy kompyuterlardan ham foydalanish tavsiya etiladi.

"Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi" fanini o'rganishda amaliy yordam tariqasida magistrantlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari tarkibini o'rganish bo'yicha chizmalar, slaydlar bilan ta'minlanadi.

Magistrantlarga "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi" fanini o'rganishda turli axborot vositalaridan, jumladan Internet tizimidagi quyidagi sayt va elektron pochталardan foydalanish tavsiya etiladi:

<http://invest-faq.com/>
<http://www.oakinv.com/>
<http://www.hondurasinfo.hn/>
<http://farmbill.farmbill.unl.edu/>
<http://www.eagleinvsys.com/>
<http://www.Apexvc.com>
<http://www.wisebuy.co.uk/>
<http://subscribe.ru>
<http://www.bimk.kiev.ua>
<http://tininfo.bigural.ru>
<http://www.bashkortostan.ru>
<http://vuirute.iessl.ru>
<http://tutby>
<http://www.zelenograd2001.narod.ru>
<http://econsultant.ru>
<http://megapolis.kharkov.ua>
<http://www.rada.kiev.ua>
<http://alyona.nns.ru>
<http://www.hse.ru>
<http://www.samara.ru>
<http://www.vestona.ru>
<http://www.officemart.ru>
<http://www.chtivo.ru>
<http://bdg.press.net.by>

Shuningdek, respublikamizda chop etilayotgan gazeta va jurnallardan, mutaxassisligiga tegishli ma'lumotlardan, xorijiy investitsiyalar bo'yicha Agentlik, Tashqi Iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent Moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimediya ilovalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

5. O'ZLASHTIRISHNING NAZORATI

Magistrantlarning fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy, oraliq hamda yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi. Joriy va oraliq baholashga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foizi miqdorida belgilangan

"Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi" fanidan magistr to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 80 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 28, oraliq baholashga 28, yakuniy baholashga 24 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholashga belgilangan ballar quyidagi mezonlar asosida qo'yiladi:

- magistrantning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tadbiiq et*1sh bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida faylar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

86 - 100 foizgacha (68,8 balldan 80 ballgacha)- "a'lo";
71 - 85 foizgacha (56,8 balldan 68,7 ballgacha) -"yaxshi";
55 - 70 foizgacha (44 balldan 56,7 ballgacha) -"qoniqarli";
55 foizdan kam (0 dan 43,9 ballgacha) -"qoniqarsiz".

6. ADABIYO TLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekistan Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, 1998, 30 dekabr.
2. O'zbekistan Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida» gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investorlarning huquqlarini himoya qilish chora-tadbirlari va uning kafolatlari go'g'risida» gi Qonuni.
4. Karimov I.A. O'zbekistan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. O'zbekistan XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekistan, 1999.
6. Prezident Islom Karimovning 2002 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003 yilda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2003 yil, 18 fevral.
7. Ukaz Prezidenta Respubliki O'zbekistan «O merax po sovershenstvovaniyu mexanizma realizatsii proektov s inostrannimi investitsiyami». 9 fevralya 1998 goda.
8. Ukaz Prezidenta Respubliki O'zbekistan «O chastichnom izmenenii ukaza ot 30 noyabrya 1996 goda «O dopolnitelnix stimulaxi lgotax, predostavlyaemix predpriyatiam s inostrannimi investitsiyami» ot 27 marta 1998 goda.
9. Abdullaeva Sh. 3. Pul, kredit va banklar. - T.: Moliya, 2000.
10. Abdullaeva Sh. 3. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya, 2002.
11. Angelidi M.S., Karimov N.G. Analiz investitsionnix proektov: Ucheb. pos. - T.: TFI, 2000.
12. Abryutina M.S., Gracheva A.V. Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatii: Ucheb.-prakt. pos. - M.: Delo i Servis. 2001.
13. Bereno V., Xavranek P.M. Rukovodstvo po otsenke effektivnosti investitsiy. - M.: INFRA - M, 1995.
14. Biznes-plan investitsionnogo proekta: Otechestvenniy i zarubejniy opit. Sovremennaya praktika i dokumentatsiya: Ucheb. pos./Pod red. V.M. Popova. - M.: Finansi i statistika, 1997.
15. Bankovskoe delo i finansirovanie investitsiy Pod red. N Bruka (Vsemirniy Bank Rekonstruksii i Razvitiya), (v chetirex chastiyax). Institut Ekonomicheskogo razvitiya Vsemirnogo Banka, 1995.
16. Lipsits IV. Kossov V.V. Investitsionniy proekt: metodi podgotovki i analiza - M.: BEK, 1996.
17. Finansoviy analiz: Upravlenie kapitalom. Vibor investitsiy. Analiz otchetnosti. - M.: Finansi i statistika, 1996.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Rezyume rukovodyashchix printsipov dlya konsultativnix firm, privilekaemix YuNIDO dlya podgotovki predvaritel'nix issledovaniy i texniko-ekonomicheskix obosnovaniy. OON po promishlennomu razvitiyu, podgotovlenno Sektorom texniko-

2. ekonomicheskix obosnovaniy, Slujbi investirovaniya, Otdel sodestviya investirovaniyu i ispolzovaniyu texnologii. Mart, 1994.
3. Breyli R., Mayers S. Printsipi korporativnix finansov. - M.: Olimp-biznes, 1997.
4. Burov V.P., Gal V.V., Kazakov A.P., Moroshkin V.A. Biznes- plan innovatsionnogo proekta metodika sostavleniya. Metodicheskoe posobie - M.: TsIPKKAP, 1997.
5. Boguslavskiy M.M. Inostrannye investitsii: pravovoe regulirovanie. -M.: BEK, 1996.
6. Gitman L. Dj, Djonk M.D. Osnovi investirovaniya. Per. s angl. - M.: Delo, 1997.
7. Konkurentsia i upravlenie riskami na predpriyatiyax v usloviyax rinka. - M.: Alane, 1997.
8. Kovalev V.V. Metodi otsenki investitsionnix proektov - M.: Finansi i statistika, 1998.
9. Kurs ekonomiki: Ucheb. / Pod red. B.A. Rayzberga. - M.: INFRA-M, 1997.
10. Finansi i upravlenie predpriyatiem/ Pod red. A.M. Kovalevoy. - M.: Finansi i statistika, 1995.
11. Shim Djey K., Sigel Djoel G. Finansoviy menedjment/Per, s angl. - M.: Filin, 1996.
12. Finansoviy menedjment: teoriya i praktika: Uchebnik/pod red. E.S. Stoyanovoy. - M.: Perspektiva, 1996.
13. Investitsionno - finansoviy portfel/otv. red. Rubin Yu.B., Soldatkin V. I. - M.: SominTEK, 1993.
14. Odintsov B.E. Proektirovanie ekonomicheskix ekspertnix sistem - M.: YuNITI, 1996.